

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolikiga (akademiklikka) tanlov bo'lib o'tmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirlarini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-298-sonli qarorining 4-bandi, 4-xatboshisida belgilangan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolikiga (akademiklikka) tanlov o'tkazish topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida va Fanlar akademiyasi Ustavining 45- va 49-bandlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolikiga (akademiklikka) tanlov bo'lib o'tmoqda. Tanlovda mamlakatimiz ilm-fan darg'alari, fan taraqqiyoti uchun xizmat qilayotgan fidoyi olimlar ishtirok etmoqda.

